

A decorative border of stylized flowers and leaves surrounds the text.

E'TIBOR OXUNOVA

**BUVIJONIM
KELDILAR**

*Kichik yoshdagi bolalar
uchun she'rlar*

„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2006

84(59)6-5

Taniqli va iste'dodli shoira E'tibor Oxunova o'zbek adabiyotining rivojlanishiga samarali hissa qo'shdi. Chop etilgan o'nlab she'riy kitoblari keng o'quvchilar ommasiga ma'lum va manzur.

Shoiraning mazkur „Buvijonim keldilar“ to'plamiga jamlangan she'rlari kichkintoylarning ruhiy holatlarini, o'ziga xos fe'l-atvorini, murg'ak tuyg'ularini ifoda etgan.

HQ 33340
0

4800000000 - 55 Buyurt. var. - 2006
353(04) - 06

ISBN 5-645-04611-0

© „O'qituvchi“ NMIU, 2006

20.07.

A475

Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston Mi-

OSMONDA OY QO'RIQCHI

Osmonda oy kulchasi,
Belanchakda ukasi.
Osmonga uzatilar
Nuriddinning qo'lashi.

Bahriddinning ko'zlari
Oymomoga mo'ltirar.
Oymomajon taxtida
Nurin sohib o'ltirar.

Bahriddinjon akasi,
Nuriddinjon ukasi.
Ikkisining ko'nglida,
Oymomaning havasi.

Nuriddinga kular oy,
Yursa yurar, u yo'lchi.
Tun... Nuriddin uxlasa,
Oy osmonda qo'riqchi.

* * *

Ol lolalar poyandoz senga,
Ona mehri sarafroz senga,
Umrim guli — qalbim bahori,
Bolajonim, dil hamroz senga.

OYMOMANING KO‘RPASI

Oyijonim alla aytganda,
Erkalatib derlar: „toychog‘im“.
Men uxlayman, shunday paytda,
Oymomajon yoqar chirog‘in.

— Oymomajon uxlamas nega,
Alla aytmaydimi oyisi?
Hech to‘xtamas, yurgani yurgan
Oymomaning ko‘rpasi qaysi?

— Osmon — oymomaning ko‘rpasi,
Yumshoq bulutchalar parqusi.
Oy uxlasin, yulduz uxlasin
Sochib-sochib kumush yog‘dusin.

LOCHIN

— Lochin, lochin amakim
Osmonda ne qilarkin?

— Oyga qo‘nib qaytadi,
Bizdan salom aytadi.

Hozir oyda hoynahoy
O‘tirgandir ichib choy.

NIGORA QIZ

Onasi erkalatar,
Belanchagin tebratar.
Uxlatolmay ovora,
Ko'zin yumganda, zora...

Nigora qiz uxlamas
Yig'isidan to'xtamas.
Ostonada to'pchasi...
Uzatar u qo'lchasin.

Ona to'pni keltirar,
Qizchasiga mo'ltirar.
Qizcha ketar uyquga
Boshin qo'yib parquga.

Quchog'ida to'pchasi,
To'pchasida qo'lchasi.

CHAKKA

Yomg'ir yog'di...
Kechasi,
Chakka yig'lar
Chakillab.
Men o'yladim —
Do'stlari
Qo'ydimikin
Yakkalab.

QIZCHA PUCHUQQINA

Qizcha puchuqqina,
Tili chuchukkina.
Muncha bijillaysan
Tinib-tinchimaysan.

Qo'g'irchog'i — „mehmon“,
Jajji uychasida.
Qizcha o'zi mezbon,
Patnis qo'lchasida.

Sizlab mehmonini,
Dasturxon tuzatadi.
Zimdan oyijoni,
Qizin kuzatadi.

Choy ham olib chiqar
„Mehmon“ — qo'g'irchog'iga.
So'ngra olov yoqar
Jajji „o'chog'iga“.

ARALASH

Yeyaverib aralash —
Olma, uzum, shaftoli
Ahmadjonning o'sha zum,
Og'irlashdi ahvoli.

BUVIJONIM KELDILAR...

Buvim keldi oqshom choq,
Achom-achom qilishdik.
Buvijonim bizga yong‘oq,
Kulcha, mayiz bo‘lishdi.
Puchuqqinam dedilar,
Chuchukkinam dedilar...
— Puchuq nima? — so‘radim,
— Chuchuk nima? — so‘radim.
— Olamda eng shirini —
O‘zingsan-da dedilar!

OLOV VA PALOV

Onam qalab o‘choqqa,
Lovillagan olovni.
Pishirdilar bir pasda
Bizlar sevgan palovni.

TARVUZ

Bobom ekan tarvuzni
Beqasam choponi bor.
Boqsam, qamashar ko‘zim
Yesam, og‘zim to‘la bol.

NURIDDINJON QAYDA?

- Nuriddinjon qayda?
 - Bog‘cha degan joyda.
 - Bog‘chada ne qilarkin?
 - Ichadi shirin choylar.
- Yolg‘iz qolib buvisi,
Sog‘inadi qo‘zisin.
Jo‘nab qolar peshinda
Kelib qolsa ko‘rgisi.
- Nuriddinjon qayda?
 - Bog‘cha degan joyda...

ATAK-CHECHAK

Nuriddin atak-chechak,
Bir qadam bosdi kecha.
Qiqirlab kuldi biram,
Uyimiz bo‘ldi bayram.
Oppog‘im deyman doim,
Ko‘z tegmasin iloyim.
Nuriddin atak-chechak,
Bir qadam bosdi kecha.
Suyunar buvijoni,
Topgandayin jahonni.

KOPTOK TALASHIB...

Koptok o'ynardi Karim,
Janjal chiqardi Salim.
Koptogin tanib qolib,
Karimga shovqin solib,
Boshladi g'idi-bidi:
— Koptok meniki, — dedi.
Keyin shapaloq tortdi,
Karimni qattiq turti.
Do'stlar o'rtaga tushdi,
Salimjonga deyishdi:
— Nega urasan uni?
— Nega turtasan uni?
— Bo'laveradi ursam,
Karim o'zimning ukam! —
Deya Salim taltaydi,
U haqmi? Kim aytadi?

IRMOQCHA

Baland-baland tog'lardan
Sakrab tushar irmoqcha,
Chopib kelayotganday
Oppoq yolli toychoqcha.

BIZ PAROVOZMIZ

Osmon qor elar —
Yetib keldi qish.
Hovlida bizlarga
Topildi xo‘p ish.
Muz yo‘laklarda
Chang‘i uchamiz,
Bolakaylarga
To‘lar ko‘chamiz.
Eng ajoyibi —
Biz parovozmiz,
Tutun chiqadi
Ochsak og‘zimiz.

TURNALAR

Uchib keldi turnalar
Solib arg‘imchog‘ini.
Ko‘chib keldi turnalar,
Sog‘inib oshyonini.



QALAMPIR

Nimaligin bilmabman,
Nazar-pisand qilmabman.

Tishlabman qalampirni,
Og'zimga olov kirdi.

Yugurtirdi zir-zir...
Mitti polvoncha qurg'ur.

Tilim yonar, lovullar,
Ko'z yoshlarim shovullar.

Rosa dodlab qichqirdim,
Ta'zirimni xo'p yedim.

BOBOMNING NOSVOYI

Bobomlarning nosvoyini
Totib ko'rdim... voy-voy-ey,
Tilim chaqdi hoynahoy —
Bir chimdim qalampirvoy.

HAYVONOT BOG'IDA

Dam olish kun dadasi
Olib bordi zooparkka.
Erkinjonning quvonchi
Sig'mas edi yurakka.

Jilvalanib, rang-barang
Tovlanar tovus pati.
Yelpig'ich bo'ldi qarang,
Go'zal ekan san'ati.

Dor o'ynovchi maymuncha,
Diqqatin tortar birdan.
U ko'z ochib-yumguncha,
Shipga sakraydi yerdan.

Zebrani ko'rganida,
Erkinjon qoldi hayron.
Ishondi: bor ekan-da,
Beqasam to'nli hayvon?!

Dam olish kun dadasi
Olib bordi zooparkka.
Erkinjonning quvonchi
Sig'mas edi yurakka.

BOG'CHAMIZ

(qo'shiq)

Soya-salqin bog'chamiz,
Quvonamiz barchamiz.
O'ynaymiz toychoq minib,
Gohi karuselchamiz.

Suzib borar qiyiqcha,
Kapitani men o'zim.
Anvar haydar vertolyot,
Muzaffardan ham o'zib.

Qumdan yasaymiz tog'lar,
Kanalga suv quyamiz.
Xilma-xil qo'g'irchoqlar,
Barin birdek suyamiz.

Rustam har kuni „TU“ da
Moskvaga uchadi.
Doston vannada suvda
Baliq bo'lib suzadi.

Bog'cha opamiz bizni
Suyadilar erkalab,
Shuning-chun biz shoshamiz
Bog'chamizga ertalab.

UYIMIZ

Osmon bilan o'pishgan,
Quyosh bilan ko'rishgan,
Biram, biram kelishgan,
Binodadir uyimiz.

Tongda quyosh charaqlar,
Oqshom ming-ming chiroqlar.
Biram havasim kelar
Oydin yaqin-yiroqlar.

Katta shahar... tramvay,
Trolleybus g'izillar.
Marjonlar qadalganday
Lampochkalar tizilgan.

Yerning osti bir shahar,
Metrolari uchadi.

Unga tushsam har safar
Es-u hushim uchadi.

Hamma yoqda chiroqlar,
Qizil, yashil, lolarang.
Ko'kda oy chinchiroqday
Ko'rinar arang-arang.

Uyimizdan qarasam
Keng dunyo ko'ringanday.
Aytsam gapning sirasin —
Osmonda yurgandayman.



ALIFBE

Sinfga keldi kirib
Harf to'la „Alifbe“.
Doska oldida turib,
Bizlarga dedi shunday:
— Salom sizga, bolalar!
Olib keldim sovg'alar.
Yigirma to'qqizta harfim,
Hammasi kerak, muhim.
Nasihatim uqingiz,
Diqqat bilan o'qingiz.
Bo'lsak bizlar qadrdon,
Do'stlashsak, omon-omon.
Beraman ertak aytib,
Tunlari qaytib-qaytib.
Juda qiziq gaplarni,
Hatto she'r-u baytlarni,
Sizga so'zlab berardim,
Ko'nglingizni olardim.
Tezroq chiqaring savod,
Harflarni oling yod!

HARF O'RGANISH

Uch yoshli sho'x Zarifni
Qiziqtirar harflar.
Harfni harfga qo'shishni
Va so'zlarni o'qishni
Juda orzu qilardi
Kichkintoy Zarif.

— Oyi! — deb qilar xitob —
Men ham o'qiyman kitob.
Mashq boshladik betinim,
Lekin ishda yo'q unum:
„Sh“ ni o'rgatsam qarang,
„S“ deya olar arang.

Olchada „O“ bosh bo'lar,
Yo'lbarsda-chi, „Y“ kelar.
„O“ ga „Y“ ni qo'shib ber,
Va ma'nosin yechib ber
Desam, u sevingancha,
Deydi: — Yo'ybaysman Oycha.

TILIN CHO‘QIBDI HAKKA


Kichkina ukam Doston
O‘qishni sevar rostdan.
Har kun harf o‘rganar,
O‘rganolmay surgalar.
Yarim kecha bo‘lsa ham,
O‘qiydi, chuldiraydi.
Ko‘zlari mudrasa ham,
Kitobga mo‘ltiraydi.
O‘rgatay dedim uni,
Kitob tutib har kuni.
„Sh“ ni o‘rgatsam qarang,
„S“ deydi ukam arang.
„Y“ deydi „R“ ni desam,
„T“ der „K“ ni ko‘rsatsam.
Nega u chuchuk so‘ylar?
Mundoq qarasam, o‘ylab,
Mashqlar chiqdi chi ppakka...
Tilin cho‘qibdi hakka.

BINAFSHAXON, BINAFSHA

Binafshaxon, binafsha,
Kulib turar hamisha.
Qish bo'lsa binafshajon
Qaylarda saqlaydi jon?
Tuproq uning onasi,
Binafshaning hammasin
O'raydi choponiga
Oro kirar joniga.
Uyg'onganda dalalar,
Qush chalsa sibizg'alar,
Binafshasin yo'rgaklab,
Sochlarini turmaklab,
Bayramlarni kutadi,
Qizchalarga tutadi.
Binafshaxon jilmayar,
Uchib kelsa turnalar.

JILG'A


Jilg'a oqar o'ynoqlab,
Betashvish o'z yo'lida.
Chuldirab, ko'nglin chog'lab,
Boqmay o'ng-u so'liga.
Birdan duch kelib qoldi
Toshqin, shoshqin daryoga.
Quvonchlari yo'qoldi,
Bir zum toldi xayolga:
Qaytsinmi o'z yo'liga?
Yo'q, jasorat topdi u:
Chopdi daryo bo'yiga,
Qarshi oldi ulkan suv.
Jilg'a yo'lda ravona...
Obod qildi cho'llarni.
G'o'zalar otdi shona,
Gulga ko'mdi yo'llarni.
Bolalar cho'milishar,
To'lqinga ko'milishar.
Surib shirin xayollar,
Soch tarar majnuntollar,
Jilg'a yo'lda ravona...
O'z ishidan quvona,
Der: daryo hayot singari
U yaxshilik sarvari.



Jilg'a yo'lda ravona —
O'z ishidan quvona,
Daryoning o'rtasida
Ko'rib qoldi to'satdan
Yuk ortgan ulkan kema.
O'yladi, zavodmikan?!
Yana qo'rquvda qoldi,
Bir zum xayolga toldi:
Qaytsinmi orqasiga?
Yo'q, jasorat topdi u
Ko'tardi yelkasiga
Kemani to'lqin bo'lib,
So'ng dengizga uzatdi,
Uzoq yo'lga kuzatdi.
Jilg'a yo'lda ravona...
Hali qilar yumush ko'p.
U der: ulkan daryoda
Yashash gashtli ekan xo'p.

TONG, NIMA U BOLALAR?

— Tong... u nima bolalar,
Ayting-chi gul-lolalar?
Nega tongni kutishar
Tabiat, gul, bolalar?
Nega tongda kuy chalar
Bulbul sakrab butoqda?
Bol yigʻgani arilar
Shoshilar qirga, bogʻga?
Nega qurt-u qumursqa
Tong bilan teng turishar?
Kapalakar tinmayin
Guldan gulga qoʻnishar?
Tong otdimi, bolalar
Oʻynagani chopadi.
Qizaloqlar taranib,
Oynachaga boqadi.
Onalar ham tong bilan
Oppoq dasturxon yozar.
Dasturxonga sut, qaymoq,
Patir, kulchalar tuzar.
Buvilar xursand boʻlib
Qoʻl ochishar duoga.
Nega tongga peshvozdir
Qurt, qumursqa, odamlar?



Qushlar ovozi sozdir,
Ko'chalarda qadamlar.
Tong — bu quyosh kulgusi
Undan quvonch to'kilar.
Quyosh kulsa kuy, qo'shiq
Allalar ham to'qilar.
Tong uyqudan uyg'otib,
Mehnat sari uzatar.
Quyosh o'zi har yerda,
Ishimizni kuzatar.
Quyosh chiroy ulashar,
Gullarga, nok, anorga.
Qushlar ham quv-quvlashar
Jo'r bo'lishib navoga.
Quyosh maza kirgizib,
Shakar qilar uzumni.
Polizda qovun-tarvuz,
Qamashtirar ko'zimni.
Oqshom xorib bosh qo'yar
U yumshoq parqusiga.
Odamlar ham xo'shlab
Yotishar uyqusiga.

OLCHA

(Maryam Qosimovadan)

Kunlar issiq, yoz chog'i,
Yashnar Rozaning bog'i.
Mevalari turfa xil,
Olchalar pishgan hil-hil.
O'rtoqlari kelishib,
So'radilar kulishib:
— Olchalaring pishdimi,
Taglariga tushdimi?
Qani, terib kel-chi, biz
Bo'lib yeylik barimiz.
Roza bunga ko'nmadi,
O'rtoqlariga dedi:
— Uzilmaydi, pishmagan,
Tagiga ham tushmagan.
Do'stlar ketdilar nochor,
Dillari topib ozor.
Roza olchadan terib,
Shoshilib nari-beri,
Oppoq etakka soldi,
Uyga yugurib qoldi.
Olcha yer-u ko'ngli to'q,
Ko'ylakdan xabari yo'q:
Oppoq ko'ylak shalabbo,
To'kilganday murabbo.

QIRQ KISHIGA BIR MAYIZ

Qirq kishiga yetadi
Bo'lib yesa bir mayiz.
Hammayoq soz, chiroyli
Ochiq ko'ngil bo'lsangiz.
Bizda tili zaharlarni
Deydilar: dil ozori,
Lekin yaxshi, yomon fe'lining
Yo'qdir biror bozori.
Neki ko'rsa odam o'zin
Qilmishidan ko'radi.
Achchiq yoki shirin so'zni
Aytishidan bo'ladi.
Odam bo'lsa, so'zi shirin,
Mehnatni sevsa ular
Tog'day ish ham oppa-oston
Hech malolsiz qilinar.
Qirq kishiga yetib ortar
Bitta kichik mayiz ham.
Inoqlik yo'q bo'lsa, hatto
Qurir daryo, dengiz ham.

A decorative border of repeating floral motifs, possibly roses or similar flowers, surrounds the text on the page.

KUZ

Yerga to'shabdi gilam
Daraxtlarning bargidan.
Qarang: chiroyli biram
Xuddi tillo rangida.

QISH

Qor yog'ibdi, ko'chamiz
Oyna kabi yaraqlar.
Boplab chang'i uchamiz,
Yursak muzlar taraqlar.

Uyimizning derazasi
Chiroyli bo'pti rosa.
Qorbobo chizgan rasmi
Ajabmaski shu bo'lsa.

KALISH SHIKOYATI

Kumushdan chopon kiygan
Hamma uylar, daraxtlar.
Tarnovlarga osilgan
Sumalaklar karaxtlar.
Yaxmalak hamma yoqda,
Erkin sirpanchiq uchar,
Yangi kalish oyoqda,
Muzdan muzlarga ko'char.
Yig'lar bechora kalish,
Deydi: „Og'aynichalish,
Voy-voy to'kildi tishim,
Zirqirab og'rir boshim“ ...
Kalish yirtilib ketdi,
Tishi to'kilib bitdi.
Dodlar kalishi yuz bor,
Erkinning ne ishi bor.
Sirpanchik yo'l yaraqlar,
Erkin ko'ngli charaqlar.
U yiqildi gursillab,
Turib boqdi harsillab,
Kalishda tish qolmabdi,
Voy, yaxshi ish bo'lmabdi.



TUG'ILGAN KUNIM

Mening tug'ilgan kunim
Har yil bayram qilamiz.
Bog'chamizda shod-xandon
Bizlar davra quramiz.

Bugun bog'cha opamiz
Shokolad, tort ulashdi.
O'yin-kulgu avjida,
Barcha quvnab yayrashdi...

A decorative border of stylized flowers and leaves surrounds the text.

OLIB CHIQDI TUMOVNI...


Terlab Erkin tunov kun,
Tushdi muzdek ariqqa.
Tumovni olib chiqdi,
Sihatligin, sog'ligin,
Qoldirib u baliqqa.

MUSTAQILLIK MAYDONI

Toshkentim markazida,
Mustaqillik maydoni.
O'sha joyda jamuljam,
Bobolarim armoni!

MUNDARIJA

Osmonda oy qo'riqchi	3
Oymomaning ko'rpasi	4
Lochin	4
Nigora qiz	5
Chakka	5
Qizcha puchuqqina	6
Aralash	6
Buvijonim keldilar	7
Olov va palov	7
Tarvuz	7
Nuriddinjon qayda?	8
Atak-chechak	8
Koptok talashib	9
Irmoqcha	9
Biz parovozmiz	10
Turnalar	10
Qalampir	11
Bobomning nosvoyi	11
Hayvonot bog'ida	12
Bog'chamiz	13
Uyimiz	14
Alifbe	15
Harf o'rganish	16
Tilin cho'qibdi hakka	17
Binafshaxon, binafsha	18



Jilg'a	19
Tong, nima u bolalar?	21
Olcha (<i>Maryam Qosimovadan</i>)	23
Qirq kishiga bir mayiz	24
Kuz	25
Qish	25
Kalish shikoyati	26
Tug'ilgan kunim	27
Olib chiqdi tumovni	28
Mustaqillik maydoni	28

E'TIBOR OXUNOVA

BUVIJONIM KELDILAR

Kichik yoshdagi bolalar uchun she'rlar

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2006*

Muharrir G. Nasriddinova

Badiiy muharrir Sh. Xo'jayev

Texnik muharrir S. Tursunova

Kompyuterda sahifalovchi N. Ahmedova

Musahhah M. Ibrohimova

IB № 8768

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 1.04.2006.

Bichimi $84 \times 108^{1/32}$. Kegli 12 shponli. Tayms garn. Ofset bosma
usulida bosildi. Bosma t. 2,0. Shartli b.t. 1,68. Nashr.t. 1,0
2000 nusxada bosildi. Buyurtma № 48.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy
ko'chasi, 30-uy. //Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov
ko'chasi, 1-uy. Shartnoma № 12—24—06.

O-94 **Oxunova, E'tibor**

Buvijonim keldilar: She'rlar/E. Oxunova.
- T., „O'qituvchi“ NMIU, 2006-32 b.

BBK 84 (5U) 6